

## Samarqand viloyatida o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimi

2018/2019 o'quv yili boshida Samarqand viloyatida jami 171 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan akademik litseylar soni 11 tani, kasb-hunar kollejlari soni 160 tani tashkil etadi.

Muassasalarda tahsil olayotgan 87465 nafar o'quvchilarga 5918 nafar o'qituvchilar ta'lim bermoqda. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalariga 3471 nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lsa, bitiruvchilar soni 55344 nafarni tashkil etdi.



Akademik litseylar Samarqand shahrida 9 ta, Kattaqo'rg'on shahri va Urgut tumanida 1 tadan joylashgan bo'lib, ularda jami 8082 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Kasb-hunar kollejlarning 89 tasi shahar joylarida joylashgan bo'lib, ularda 53501 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.


Qishloq joylarida 71 ta kasb-hunar kolleji joylashgan bo'lib, ularda 25882 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

2018/2019 o'quv yili boshida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida 87465 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, shundan 90,8 foizi (79383 nafar) kasb-hunar kollejlarga, 9,2 foizi (8082 nafar) akademik litseylarga to'g'ri keladi.

2018/2019 o'quv yili boshida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining 1 nafar o'qituvchisiga 15 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich akademik litseylarda 13 nafar, kasb-hunar kollejlarda 15 nafarni tashkil qiladi.

### Hududlar kesimida o'quvchilar soni

■ Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari  
 ■ Akademik litseylar o'quvchilari



### Hududlar kesimida bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni

■ Kasb-hunar kollejlarda ■ Akademik litseylarda

